



UDK:316.62:159.923.2

Shohsanam YALGASHEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti magistranti
E-mail: yalgashev1994@mail.ru

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi katta o'qituvchisi, PhD L.Mahkamova taqrizi asosida

SHAXS SOTSIAL FAOLLIGI TUSHUNCHASI, UNING IJTIMOY MUHIT BILAN O'ZARO TA'SIRI, MEXANIZM VA SHAKLLARI

Аннотация

Ushbu ilmiy maqolada shaxs sotsial faolligi tushunchasining psixologik talqini, shaxs va ijtimoiy muhitning o'zaro ta'sirlari, uning asosiy shakllari va ijtimoiy-psixologik mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Shuningdek, bu maqolada shaxs sotsial faolligiga tashqi ta'sirlar, ijtimoiy muhitning o'zaro ta'siri hamda shaxs faolligining ijtimoiy norma va jarayonlarga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari atroflicha tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Shaxs, sotsial faollik, psixologik mexanizmlar, ijtimoiy muhit, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy identifikatsiya, psixologik farovonlik.

ПОНЯТИЕ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ЛИЧНОСТИ, ЕЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ С СОЦИАЛЬНОЙ СРЕДОЙ, МЕХАНИЗМЫ И ФОРМЫ

Аннотация

В данной научной статье проводится комплексный анализ психологической интерпретации понятия социальной активности личности, взаимодействия личности и социальной среды, ее основных форм и социально-психологических механизмов. Также в данной статье подробно анализируются внешние воздействия на социальную активность личности, взаимодействие социальной среды и механизмы влияния активности личности на социальные нормы и процессы.

Ключевые слова: Личность, социальная активность, психологические механизмы, социальная среда, социальная поддержка, социальная идентификация, психологическое благополучие.

THE CONCEPT OF SOCIAL ACTIVITY OF THE PERSON, ITS INTERACTION WITH THE SOCIAL ENVIRONMENT, MECHANISMS AND FORMS

Annotation

This scientific article comprehensively analyzes the psychological interpretation of the concept of individual social activity, the interactions between the individual and the social environment, its main forms, and socio-psychological mechanisms. This article also analyzes in detail external influences on an individual's social activity, the interaction of the social environment, and the mechanisms by which an individual's activity influences social norms and processes.

Key words: Personality, social activity, psychological mechanisms, social environment, social support, social identification, psychological well-being.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda shaxsning ijtimoiy hayotdagi faolligi masalasi psixologiya va ijtimoiy fanlarning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Globallashuv, raqamli texnologiyalar va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sharoitida shaxs jamiyat bilan ko'p darajali va murakkab aloqalar tizimiga kirishmoqda. Ushbu jarayonda shaxs sotsial faolligi uning ijtimoiy moslashuvi, o'zini anglash darajasi, ruhiy barqarorligi va psixologik farovonligi bilan bevosita bog'liq bo'lib bormoqda.

Psixologik tadqiqotlarga ko'ra, shaxs faolligi faqat tashqi xulq-atvor yoki harakatlar majmuidangina iborat emas, balki shaxsning ichki motivlari, o'sha jarayondagi emotsional holati, ehtiyojlari, qadriyatlar va ijtimoiy yo'nalganligining ifodasi ham deyishimiz mumkin. Shu sababli sotsial faollikni o'rganish shaxs rivojlanishini, uning jamiyat bilan o'zaro ta'sir mexanizmlarini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Mazkur maqolaning maqsadi shaxs sotsial faolligi tushunchasining psixologik talqinini ochib berish, uning shakllari va ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tahlil qilish hamda faollik va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ilmiy asosda yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Psixologiyada shaxs sotsial faolligi shaxsning jamiyat hayotida ongli, maqsadli va

ijtimoiy ahamiyatga ega ishtiroki sifatida qaraladi. Ushbu tushuncha shaxsning tashqi faoliyatidan tashqari uning ichki ruhiy holati, motivlari va ehtiyojlari bilan chambarchas bog'liqdir. Faoliyat yondashuvi doirasida shaxs faolligi uning ehtiyojlari va motivlari orqali ijtimoiy faoliyatga kirishish jarayoni sifatida izohlanadi. YA'ni, shaxs faoliyati davomida uning faqatgina tashqi xatti-harakati va xulq-atvoriga ko'ra faol deya olmaymiz, uning faoliyat davomidagi ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari, qanday maqsadda, qaysi motiv bilan bu ishni qilayotganligi, shuningdek, faqat faoliyat natijasimi yoki jarayonning o'zi naqadar muhim ekanligi kabi bir qancha omillar shaxs sotsial faolligini o'rganish uchun muhim ahamiyat kasb etadi deyish mumkin.

Gumanistik psixologiya vakillari shaxs sotsial faolligini ehtiyojlar ierarxiyasidagi eng yuqori pog'ona o'zini ro'yobga chiqarish ehtiyoji bilan bog'laydilar. Maslou ehtiyojlar ierarxiyasida tegishlilik, hurmat va o'zini namoyon qilish ehtiyojlari qondirilganda shaxsning ijtimoiy faolligi kuchayishini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, inson komillikka intilganda quyi pog'onadagi ehtiyojlari qondirilgani sari, insonlar tomonidan tan olingani va hurmatga sazovor bo'lgani sari ijtimoiy jihatdan faolligi yanada ortib boradi.

Gumanistik psixologiya vakillaridan yana biri Rojers fikriga ko'ra, shaxs ijtimoiy muhit bilan ochiq va samimiy munosabatlarga kirishgandagina to'liq faoliyat yurituvchi shaxs sifatida shakllanadi. Bundan kelib chiqib, shaxs qachonki jamiyat normalarini to'g'ri qabul qilib, jamiyat bilan yaxshi munosabatlar o'rnatilgan bo'lsa, bu insonni sotsial jihatdan faol bo'lgan inson deyishimiz mumkin.

Ijtimoiy-psixologik yondashuvda sotsial faollik shaxsning ijtimoiy rollarni egallashi va jamiyatdagi o'z o'rnini anglash darajasi bilan belgilanadi. Shaxs ijtimoiy munosabatlar tizimida faol subyekt sifatida ishtirok etar ekan, uning faolligi ijtimoiy identitetning muhim ko'rsatkichiga aylanadi. Bu yondashuvga ko'ra, jamiyatda inson turli rollarni bajaruvchi faol ishtirokchi bo'lib, har bir rolni bajarishda unga xos qadriyatlar va xulq-atvorni namoyon qiladi. Bu jarayonda muhimi shaxsning nechta rol bajarishi emas, balki uni ongli va faol bajarishidir. Faollikning muhim jihatlardan biri jamiyatda o'z o'rnini anglash hisoblanadi. Jamiyatda o'zini va fikrini ahamiyatli va muhim deb hisoblagan inson faol subyekt sifatida harakat qila boshlaydi. YA'ni o'z huquq va majburiyatlarini anglab, jamiyatda yuzaga kelgan turli muammolarga befarq bo'lmasdan, o'z fikr- mulohazalarini bildirishga va ularni hal qilishga harakat qiladi.

Shunday qilib, shaxs sotsial faolligi chuqur tushuncha bo'lib, u faqatgina tashqi jihatlarni emas balki psixologik jihatdan shaxsning ichki motivlari, ehtiyojlari va qadriyatlari asosida jamiyat hayotida faol ishtirok etish qobiliyatini ifodalaydi. Sotsial faol shaxs ijtimoiy normalarni shunchaki qabul qilmasdan ularni qayta tahlil qiladi va faol subyekt sifatida ijtimoiy muammolarga munosabat bildirishi orqali jamiyat rivojiga hissa qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada shaxs sotsial faolligi kommunikativ, fuqarolik, kasbiy-ijtimoiy, madaniy-ma'naviy shakllarda o'rganilgan olimlar: R.Putnam, J.Coleman, E.Dyurkeym va V.Karimovalarning ilmiy qarashlari tadqiq etildi.

Ma'lumki, shaxs sotsial faolligi turli shakllarda namoyon bo'lib, bu shakllar uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqalarining ko'lamini aks ettiradi. Eng muhim shakllardan biri kommunikativ faollik bo'lib, u shaxsning muloqotga kirishish, ijtimoiy aloqalarni o'rnatish va saqlab qolishdagi faolligini ifodalaydi. Quyida sotsial faollikning bir nechta shakllariga to'xtalib o'tamiz:

Fuqarolik faolligi shaxsning jamiyat va davlat hayotidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda ishtirok etishi bilan bog'liqdir. Fuqarolik faolligi yuqori bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy ishonch va hamkorlik darajasi ham yuqori bo'lishi kuzatiladi. E.Dyurkeym esa, ijtimoiy integratsiya darajasi past bo'lgan jamiyatlarda ijtimoiy muammolar kuchayishini ta'kidlagan. Fuqarolik faolligi insonni passiv obyekt emas, balki jamiyat hayotiga befarq bo'lmagan mas'uliyatli shaxsga aylantiradi

va bu orqali "davlat-jamiyat-shaxs" o'rtasidagi muloqot tizimi yanada yaxshilanadi. Shuningdek, jamiyatda insonlar orasida o'zaro ishonchni oshiradi, individual manfaatlar jamoaviy manfaatlar bilan uyg'unlashib, hamkorlik aloqalari kuchayadi. Fuqarolik faolligi ijtimoiy integratsiyaning muhim omili bo'lib, u bo'lmasda jamiyat a'zolar o'rtasida aloqalar zaiflashib, barcha uchun umumiy bo'lgan qadriyat va meyorlar yemirilib, jamiyatda ijtimoiy beqarorlik va deviant xulq-atvoriga ega bo'lgan insonlarning ko'payishiga olib kelishi mumkin.

Kasbiy-ijtimoiy faollik shaxsning professional faoliyatidan tashqari ijtimoiy loyihalar, ilmiy va jamoatchilik tadbirlarida ishtirok etishini anglatadi. Bundan tashqari, madaniy-ma'naviy faollik shaxsning madaniy tadbirlar, san'at va an'analar orqali jamiyat hayotida ishtirok etishini ifodalaydi. Kasbiy faollikning yuqori bo'lishi faoliyatning zerikarli

bo'lishining oldini oladi va mehnat jamoasida shaxslararo munosabatlarni kuchaytirib, ijobiy psixologik muhit yaratishga yordam beradi.

Zamonaviy jamiyatda raqamli sotsial faollik ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar va onlayn hamjamiyatlar shaxsning ijtimoiy ishtirok doirasini kengaytirsa-da, ayrim hollarda bunday faollik yuzaki xarakterga ega bo'lishi mumkin. Raqamli makonda insonlar ijtimoiy va siyosiy masalalarga fikr bildirib, jamoatchilik muhokamalarida qatnasha oladi. Raqamli muhitda fikr bildirish, turli muhokamalarni online o'tkazish, axborotlarni oson va tez tarqatish mumkin bo'lganligi uchun real muhitda faol bo'lmagan boshqa qatlamlar ham ijtimoiy jarayonda faol bo'lishlari va bu qisman demokratlashuv oshishiga olib kelishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi tahlillardan shu ma'lum bo'ldiki, shaxs sotsial faolligining shakllanishi murakkab ijtimoiy-psixologik mexanizmlar orqali amalga oshadi. Ushbu mexanizmlarning markazida motivatsiya turadi. Shaxs ehtiyojlari va ichki motivlari uning jamiyat hayotidagi faollik darajasini belgilaydi. Motivatsiya insonning nima uchun sotsial faollikka intilayotganini o'rganishda muhim element hisoblanadi. Bu insonda jamiyatda tan olinish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlari orqali yuzaga keladi.

Psixolog olim A.Maslou buni ehtiyojlar ierarxiyasi orqali tushuntiradi. Ya'ni, asosiy ehtiyojlar- fiziologik va xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojlar qondirilmasa, ijtimoiy faollikka ehtiyoj tug'ilmaydi. 3- va 4- pog'onadagi ehtiyojlar – tegishlilik, hurmatga bo'lgan ehtiyojlarning qondirilishi orqali shaxsda ijtimoiy faollik osha boshlaydi va pog'onaning eng yuqorisi o'z-o'zini ro'yobga chiqarish ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. Bu orqali shaxsda sotsial faollik - tashabbuskorlik, jamiyat hayoti uchun mas'uliyat va yetakchilik namoyon bo'ladi.

Tegishlilik ehtiyoji shaxsni ijtimoiy munosabatlarga faol kirishishga undovchi muhim omil hisoblanadi. Shuningdek, ijtimoiy identifikatsiya mexanizmi shaxs faolligining barqarorligini ta'minlaydi. Shaxs o'zini muayyan ijtimoiy guruh a'zosi sifatida anglagan sari uning ijtimoiy faolligi ortadi. Tegishlilik insonning birlamchi ehtiyojlaridan biri hisolanadi. Inson ijtimoiy mavjudot bo'lganligi uchun har doim o'zini guruhning bir qismi sifatida his qilishga, barqaror ijtimoiy aloqalarga ehtiyoj sezadi. Shuning uchun ham inson doimiy muloqot o'rnatishga, jamoaviy faoliyatda qatnashishga harakat qiladi. Shu orqali insonning sotsial faolligi ortadi.

O'z-o'ziga ishonch (self-efficacy) ham sotsial faollikning muhim mexanizmlaridan biridir. O'z imkoniyatlariga ishonchi yuqori bo'lgan shaxslar ijtimoiy faoliyatda tashabbuskor bo'ladi. Shuning uchun o'z-o'ziga ishonchi yuqori bo'lgan insonlar ko'pincha uchun emas, balki qiyinroq vazifalarni tanlashga harakat qiladilar. Bu vazifani bajarish orqali ular o'z-o'ziga ishonch darajasi yanada ortib boradi va tan olinish ehtiyoji ham qondiriladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sotsial faollik psixologik farovonlik bilan ijobiy bog'liqdir. Unga ko'ra, inson jamiyat hayotida qanchalik faol ishtirok etsa, o'zini shunchalik foydali va ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda his qiladi. Bu esa insonning emotsional barqarorligi va hayotdan qoniqish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Shaxs sotsial faolligi ijtimoiy muhitdan ajralgan holda shakllanmaydi. Ijtimoiy norma, qadriyatlar va institutlar shaxs faolligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, faol shaxslarning o'zi ham ijtimoiy muhitni o'zgartirishga qodir bo'ladi. Chunki ijtimoiy faol insonlar jamiyat hayotiga befarq va passiv bo'lmagan shaxslardir. Ular jamiyat normalarini shunchaki qabul

qilmasdan ularni qayta tahlil qilish va kerak bo'lsa o'zgartirishga harakat qiladilar.

Shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir K. Levin tomonidan ilgari surilgan $B = f(P, E)$ formulasi orqali izohlanadi, ya'ni xulq-atvor shaxs va muhit o'zaro ta'sirining mahsulidir (Lewin, 1936). Bu formulada B (behaviour)- xulq-atvor, P (person)- shaxs va E (environment)- tashqi muhitni ifodalaydi. Bunda:

- "P" shaxsning psixologik holati, individual xususiyatlari, motivatsiya, ehtiyoj va qadriyatlarini;
- "E" madaniy, ijtimoiy-psixologik muhit omillarini;
- "B" esa ma'lum muhit va vaziyatdagi insonning xulq-atvorini ifodalaydi. Undan kelib chiqadiki, inson xulq-atvori o'zaro dinamik munosabat natijasi bo'lib, uni faqatgina tashqi muhit yoki insonning shaxsiy sifatleri orqali tushuntirib bo'lmaydi.

Ushbu model sotsial faollikni tushuntirishda muhim rol o'ynaydi. Chunki insonda ichki motivatsiya bo'lsa, lekin uni muhit qo'llab-quvvatlamasa, aksincha, muhit qo'llab tursa-yu, insonda ichki ishonch va ehtiyoj bo'lmasa sotsial faollik yuzaga kelmasligi mumkin. Ikki omil ham o'zaro dinamik ravishda bir-biriga mos kelganda shaxsda ijtimoiy faollikni ko'rishimiz mumkin.

Bu mexanizmga tayanib ish ko'rish hozirgi kunda yoshlarga oid davlat siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish va jamiyat rivoji uchun yanada foydali bo'lishi mumkinligini qonunlarimizda ham ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, davlat siyosati va ijtimoiy institutlar tomonidan yaratilgan qo'llab-quvvatlovchi muhit shaxs va yoshlarning sotsial faolligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxs sotsial faolligi murakkab va ko'p omilli psixologik hodisa bo'lib, u shaxsning faqat tashqi xulq-atvori va xatti-harakatlari bilangina emas, balki uning ichki motivatsiyasi, ijtimoiy identifikatsiyasi va ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri orqali shakllanib boruvchi jarayon hisoblanadi. Sotsial faollik shaxsning jamiyat hayotida o'z o'rni va rolini anglashi va faol qatnashishi orqali yuzaga keladi. Bu orqali shaxsning ijtimoiy moslashuvi va psixologik farovonligi darajasi oshib boradi.

Sotsial faollikni o'rganishda shaxs motivatsiyasi markaziy omil bo'lib, insonning ichki ehtiyoj va motivlari uni ijtimoiy jihatdan faol bo'lishga undaydi. Ayniqsa, tegishlilik, tan olinish, o'zini namoyon qilish ehtiyojlari insonni insonlar bilan faol muloqot qilishga va o'zini jamiyatning bir qismi sifatida anglashiga yordam beradi.

Sotsial faollik shakllaridan biri bo'lgan fuqarolik faolligi shaxsning ijtimoiy jarayonlarda faol qatnashishi orqali jamiyat rivoji uchun hissa qo'shishi, ijtimoiy integratsiya va demokratlashuv darajasining oshishiga olib kelishi mumkin ekan.

Shuningdek, sotsial faollik va psixologik farovonlikning bevosita bog'liqligini ham ko'rishimiz mumkin. Sotsial faollik darajasining oshishi insonlarda o'zini ijtimoiy jihatdan ahamiyatli his qilish, emotsional barqarorlik va hayotdan qoniqish darajasining oshishiga olib keladi. Bu orqali insonlarning psixologik va jismoniy salomatligini ham yaxshilash mumkin. Chunki insonning fiziologik jihatdan sog'lom bo'lishi, avvalo, uning psixik salomatligi, umumiy kayfiyati darajasiga bog'liqdir. Ushbu masalani chuqur o'rganish shaxs rivoji va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 14-sentabrda qabul qilingan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni. <https://lex.uz/docs/-3026246>
2. Leontiev A.N. Activity. Consciousness. Personality, Politizdat, Moscow, 1975. <https://www.sciepub.com/reference/87699?utm>
3. Maslow A.H. Motivation and Personality (2nd ed.). – New York: Harper & Row, 1970. – P. 117.
4. Rogers C. On Becoming a Person. – Boston: Houghton Mifflin, 1961.
5. Андреева И. Н. Социальная психология: электронное учебное пособие для студентов учреждений высшего образования по специальности «Социальные коммуникации» / И. Н. Андреева. – Новополюк: Полоц. гос. унт имени Евфросинии Полоцкой, 2023. – С. 29.
6. Асмолов А.Г. Психология личности: принципы общепсихологического анализа. Учебник для студентов вузов. — М.: МГУ, 1990. – С. 105.
7. Каримова В. М. Ijtimoiy psixologiya. – Toshkent: Fan, 2010. – B. 62.
8. Putnam R..Bowling Alone: The Collapse and Revival of American Community. – New York: Simon & Schuster, 2000.
9. Coleman J..Social Capital in the Creation of Human Capital // American Journal of Sociology, 1988. – P. 235.
10. Durkheim E. Suicide: A Study in Sociology. – London: Routledge, 1897.
11. Maslow A.H. Motivation and Personality (2nd ed.). – New York: Harper & Row, 1970. – P. 52.
12. Bandura A..Self-Efficacy: The Exercise of Control. — New York: W.H. Freeman, 1997.